

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi Moliya va moddiy-texnika
ta’minoti departamenti boshlig‘i, tanlov
komissiyasi raisi



A.A. Abidjanov

“31” 02 2022-yil.

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO‘YICHA XARID QILISH HUJJATLARI (Yangi qurilish va rekonstruksiya qilish obyektlarini loyihalashtirish uchun)

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Doimiy xarid komissiyasining ish tartibi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, doimiy xarid komissiyasining eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matinda tanlash deb yuritiladi) jarayonida olib boradigan ish tartibi, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

1.2. Mazkur ish tartibi (keyinchalik reglament) tavsiya xususiyatiga ega, tanlashning predmetidan qat’iy nazar, doimiy xarid komissiyasi tomonidan o‘zgartirishlar kiritilishi va belgilangan tartibda buyurtmachi tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

1.3. Doimiy xarid komissiyasi, tanlashning bevosita ishtirokchisi bo‘lgan holda, buyurtmachining buyrug‘i yoki boshqa farmoyish beruvchi hujjati bilan tuziladi va tanlashni tartibotiga doir masalalarni ko‘rib chiqishga, muhokama etib tasdiqlashga huquqlidir.

1.	Tanlash ishlarini o‘tkazish uslubi	Ball uslui (eng yaxshi taklif tanlovi uchun ishtirokchilar tomonidan elektron tarzda https://xarid.uzex.uz/ portali orqali taqdim qilingan hujjatlarning texnik va narx qismlari komissiya a’zolari tomonidan sifat va ishonchliligi o‘rganib baholanadi, eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchi g‘olib bo‘ladi.
2.	Ishtirokchilar tomonidan taqdim etiladigan takliflarni qabul qilish muddati	Ushbu e’lon portaliga joylashtirilgan kundan boshlanib, portalda tugashi belgilangan sana va vaqtgacha.
3.	Tanlash hujjatlarini tayyorlash tili	O‘zbek va rus tillarida.
4.	Bog‘lanish uchun aloqa ma’lumotlari	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Moliya va moddiy-texnika ta’minoti departamenti Kapital qurilish va ta’mir boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash bo‘limi boshlig‘i B.M.Nadirxanov (91) 192-93-79, Bosh mutahassi A.D.Yuldashev (94) 668-17-67, (71) 231-37-78.
5.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Yu.Rajabiy ko‘chasi, 1-uy.

2. Loyihachi tashkilotlariga qo'yiladigan asosiy talablar

T/r	Talab nomi	Tasdiqlovchi hujjat
1.	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining II va undan yuqori toifalangan ob'ektlarni loyihalashtirish uchun berilgan litsenziyasi mavjudligi	Litsenziya nusxasi
2.	Tashkilotlarning Davlat idoralari ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma mavjudligi	Guvohnoma nusxasi
3.	Tashkilotda faoliyat yurituvchi xodimlar soni 20 va undan yuqoriligi (F.I.SH., lavozimi hamda ish tajribasi (yil) haqidagi to'liq ma'lumot, QR kodi bilan.	Ma'lumotnoma QR kodi bilan.
4.	Tanlash ishtirokchilarining ish haqi jamg'armasi va xodimlar o'rtacha soni bo'yicha ko'rsatkichlari (soliq qo'mitasidan ma'lumotnoma)	Soliq qo'mitasidan ma'lumotnoma
5.	Loyiha ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan asbob-anjomlari va kompyuter texnikalari mavjudligi (tasdiqlovchi hujjatlari bilan)	Anjomlarning to'liq ro'yxati, yili, soni, marka modeli ro'yxati
6.	Obyektni joyiga chiqib ko'rilganligi va ishlarni o'z vaqtida topshirish to'g'risida kafolat xati	Kafolat xati
7.	Soliq organidan soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzдорligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma mavjudligi	Ma'lumotnoma (olinganiga bir oydan oshmagan bo'lishi shart)
8.	Bankdan kartoteka mavjud emasligi xaqida asl nusxada ma'lumotnoma	Ma'lumotnoma (olinganiga bir oydan oshmagan bo'lishi shart)
9.	Loyiha-qidiruv ishlarini olib borish muddati (asoslovchi hujjatlar bilan)	Umumiy ishlab chiqarish grafigi
10.	Maxsus axborot portalida e'lon qilingan tanlash bahosidan yuqori ko'rsatilgan narx taklifi ko'rib chiqilmasligi	Taklif etilayotgan narx e'londa ko'rsatilgan narxdan yuqori bo'lmasligi
11.	Tanlash obyektiga o'xshash davlat buyurtmachiligidagi obyektlarda oxirgi uch yillik ish tajribasi (Ekspertiza xulosalari)	Asoslovchi hujjatlar
12.	Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha kafolat xatining mavjudligi	Kafolat xati

3. Takliflarni rasmiylashtirishga doir talablar.

Ishtirokchilar o'z takliflarini elektron ko'rinishda <https://xarid.uzex.uz/> portaliga elektron tanlovlarni o'tkazish uchun joylashtirilishi lozim.

4. Takliflarni baholash me'zonlari va ko'rib chiqish tartibi.

Ishtirokchilar qo'yilgan talablar uchun taqdim qilingan hujjatlariga, ya'ni texnik qismning miqdoriy ko'rsatkichlari va narx qismining miqdoriy ko'rsatkichlari uchun umumiy 100 ball to'plashlari mumkin.

Eslatma: Texnik qismdagi birorta ta'labga javob bera olmagan ishtirokchilar tanlovdan diskvalifikatsiya qilinadi.

5. Ijrochilar bilan hisob-kitob tartibi.

G'olib bilan hisob-kitob milliy valyuta(so'm)da amalga oshiriladi. Tanlash g'olibiga shartnoma qiymati bir milliard so'mgachi bo'lsa 30%, undan yuqori bo'lgan taqdirda 15% (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 16 martdagi 139-sonli qaroriga asosan) miqdorda oldindan to'lov o'tkazib beriladi. Qolgan mablag' g'olib loyiha tashkiloti tomonidan loyiha-smta hujjatlari to'liq ishlab chiqilib 3 nushada va elektron shaklda buyurtmachiga taqdim qilib, ekspertiza hulosasi olingandan so'ng o'tkazib beriladi.

**O'zbekiston Respublikasi IIV
M va MTTD Kapital qurilish
va ta'mirlash boshqarmasi boshlig'i**



A.A.Umarov

**Loyiha-smeta hujjatlarini
tayyorlash bo'limi boshlig'i**



B.M. Nadirxanov

**Loyiha-smeta hujjatlarini
tayyorlash bo'limi
bosh mutahassisi**



A.D. Yuldashev